

O‘ZBEKISTON VA MDH MAMLAKATLARIDA TERRORCHILIK FAOLIYATI UCHUN JAVOBGARLIKNING QIYOSIY TAHLILI

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Qiyosiy dinshunoslik” yo‘nalishi
2-bosqich magistranti: A.Mustafoyev
Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. E.Ibragimov*

2022-yil 28-yanvardagi yildagi PF-60-son bilan tasdiqlangan “2022-2026 – yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish, bu sohada xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Xususan, 82-maqсадда ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning xalqaro-huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda xorijiy davlatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytirish, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm, terrorizm va ularni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasida axborot hamda tajriba almashish, faoliyati ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda faol ishtirot etish kabi maqsad va vazifalar belgilangan. Bundan tashqari, 2021-yil 1-iyuldaggi PF-6255-sonli Prezident Farmoni bilan “2021 – 2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi” tasdiqlangan. Mazkur farmonda strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ular quyidagilar:

- ekstremizm va terrorizm g‘oyalari tarqalishining oldini olish maqsadida vatanparvarlik, an’anaviy qadriyatlar va bag‘rikenglik mafkurasini targ‘ib qilish;
- voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida ekstremizm va terrorizm g‘oyalari tarqalishining oldini olish;
- ayollar huquqlarini himoya qilish hamda ularning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi rolini kuchaytirish;
- uzoq muddat xorijda bo‘lgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm g‘oyalari ta’siridan himoya qilish;
- Internet jahon axborot tarmog‘idan ekstremistik va terrorchilik maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish;
- fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga keng jalb qilish;
- ekstremistik va terrorchilik harakatlarini sodir etganlik hamda ularni moliyalashtirganlik uchun huquqiy ta’qib va javobgarlikka tortish choralarini takomillashtirish;

- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

- ushbu sohadagi xalqaro va mintaqaviy hamkorlik.¹

Mazkur strategiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi davlat organlari faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

- b) sohadagi normativ-huquqiy va uslubiy-amaliy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- v) davlat organlari, keng jamoatchilik va xalqaro hamjamiyatning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan harakatlarini birlashtirish;

- g) jamiyatda konfessiyalararo va millatlararo totuvlikni ta’minlash;

- d) davlatning aholi, ayniqsa yoshlarning ekstremistik va terrorchilik faoliyatiga jalb etilishidan himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

- e) ekstremizm va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etish;

- j) ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish yo‘nalishida mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni takomillashtirish.²

2000-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra Respublikamizda terrorizmga kurashda vakolatli organlar quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti;³

2018-yilda qabul qilingan “Ekstremizga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, O‘zbekistonda ektremizga qarshi kurash olib boruvchi vakolatli davlat organlari quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

¹ “2021 — 2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (01.07.2021 yildagi PF-6255-son)

² 2021 — 2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi” 1-bob.

³ O‘zbekiston Respublikasning Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonunining 8-moddasi, 2000-yil 15-dekabr, 167-II-son.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
 O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
 O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi;
 O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.⁴

O‘zbekistonda ekstremistik faoliyat bilan shug‘ullanganlik uchun jismoniy ham, tashkilotlar ham javobgarlikka tortiladi, bunday tashkilotlarning faoliyati tugatiladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida terrorizm va ekstremizm bilan bo‘g‘liq quyidagi jinoyatlar belgilangan:

Terrorizm (JK 155-modda); tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik (JK 155¹-modda); terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o‘quvdan o‘tish, chiqish yoki harakatlanish (JK 155²-modda); terrorizmni moliyalashtirish (JK 155³-modda); milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atish (JK 154-modda); jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish (JK 244¹-modda); diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish (JK 244²-modda); diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish (JK 244³-modda).

MDH davlatlarining jinoiy qonunchiligidagi terrorchilik faoliyati uchun javobgarlik to‘g‘risidagi normalar mavjud bo‘lib, tahlil qilinayotgan jinoyatlarning asl yoki nom jihatidan o‘xhash elementlarini nazarda tutadi. Masalan, bu qilmish Armaniston Respublikasi Jinoyat kodeksida (217-modda), Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksida (214-modda), Qirg‘iziston Respublikasi Jinoyat kodeksida (226-modda), Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksida (179-modda), Turkmaniston Jinoyat kodeksida (271-modda), Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksida (233-modda) terrorizm deb ataladi, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksida (205-modda), Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksida (278-modda), Ukraina Jinoyat kodeksida (258-modda) – terroristik akt, Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksida (289-modda) - terrorchilik harakati.

Aksariyat MDH davlatlarining jinoiy qonunchiligiga ko‘ra, terrorizmning asosiy obyekti jamoat xavfsizligini ta‘minlovchi jamoat munosabatlari hisoblanadi. MDH mamlakatlari qonun chiqaruvchilarining fikricha, bunday birdamlik MDHga a’zo davlatlar uchun namunaviy Jinoyat kodeksi doirasida jinoyatchilikka qarshi kurashning jinoyat-huquqiy mexanizmini birlashtirish bilan bog‘liq.⁵

⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuning 15-moddasi. 2018-yil 30-iyul, O‘RQ-489-son.

⁵ Мирзоахмедов Ф.А. Особенности ответственности за терроризм по уголовному праву государственных СНГ // Общество и право. -2016. -№1. -- С.104.